

## ELEKTRON PEDAGOGIKA TA'LIMGA ZAMONAVIY YONDASHUV TENDENSIYASI SIFATIDA

**Abdunazarova Nazira Botir qizi**

*Email:naziraa1407@gmail.com*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: p.f.n.dotsent*

**S.M.Yòldosheva**

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada elektron pedagogika haqida batafsil ma'lumot berib o'tiladi. Shuningdek, hozirgi zamon talablariga mos ravishda ya'ni o'quvchilarni elektron tarzda o'qitish, ta'limda axborot -kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, bolalarni interaktiv tarzda o'qitish kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bundan tashqari elektron pedagogikaning yaxshi va yomon jihatlari, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar va kamchiliklarni tahlil qilib, bu muammolarga yechim topishni nazarda tutadi.*

**Kalit so'zlar :** *Internet, multimedia, masofaviy ta'lim, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, elektron ta'lim, kompyuter yordamida o'qitish.*

**Аннотация :** *В этой научной статье представлена подробная информация об электронной педагогике. Также в соответствии с требованиями настоящего времени сюда включены такие вопросы, как электронное обучение учащихся, использование информационно-коммуникационных технологий в образовании, интерактивное обучение детей. Кроме того, хорошие и плохие стороны электронной педагогики предполагают поиск решения этих проблем путем анализа взаимоотношений преподавателя и ученика и выявления недостатков.*

**Ключевые слова:** *Интернет, мультимедиа, дистанционное образование, информационно-коммуникационные технологии, электронное образование, компьютерное обучение.*

**Annotation :** *This scientific article provides detailed information about electronic pedagogy. Also, in accordance with the requirements of the present time, it includes issues such as electronic education of students, use of information and communication technologies in education, and interactive education of children. Furthermore, the benefits and drawbacks of e-pedagogy point to the need to examine the teacher-student connection and pinpoint any inadequacies in order to discover solutions to these issues.*

**Keywords:** *Internet, multimedia, distance education, information and communication technologies, electronic education, teaching with the help of computer.*

Hammaga ma'lumki, biz hozirda raqamli texnologiyalar rivojlangan axboriy jamiyatda yashaymiz. Shu sababli kundalik hayot tarzimizning asosiy qismini raqamli texnologiyalar, zamonaviy uskunalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Rivojlangan Yevropa mamlakatlariga qaraydigan bo'lsak ularda har bir sohada sun'iy intellektdan,

Internetdan keng ko'lamda foydalanishmoqda ayniqsa, ta'lim sohasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ko'plab rivojlangan davlatlarda elektron pedagogikadan unumli foydalanishmoqda, chunki bu ko'plab insonlarga qulayliklar yaratib bermoqda.

Avvalambor biz "Elektron pedagogika, elektron ta'lim nima?" degan savolga javob topib olishimiz kerak. Elektron pedagogika, shuningdek, onlayn ta'lim, masofaviy ta'lim yoki virtual o'qitish deb ham ataladi. E-learning (ing. E-learning, inglizcha qisqartma. Electronic Learning) - axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib elektron ta'lim tizimini tashkil qilib, bunda "Aqlli auditoriya" dan foydalanish ko'zda tutiladi. Elektron ta'lim elektron darsliklar, ta'lim xizmatlari va texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Bu zamonaviy ta'limning rivojlangan ko'rinishi bo'lib, unda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bu yerda o'quvchilar va o'qituvchilar turli xil elektron vositalar yordamida o'zaro ta'sir qiladilar va ta'lim oladilar. "E-learning-Internet va multimedia yordamida o'rganish" - deb ta'rif beradi YUNESKO ekspertlari.

Elektron ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- \*shaxsiy kompyuter, mobil telefon, DVD pleer, televizor va shu kabi elektron uskunalardan foydalangan holda elektron materiallar bilan ishlash;
- \*masofaviy (hududiy) ekspertdan (o'qituvchidan) maslahat, baho olish va masofaviy o'zaro aloqa qilish imkoniyati;
- \*umumiy virtual o'quv faoliyatiga rahbarlik qiluvchi foydalanuvchilar (ijtimoiy tarmoqlar) taqsimlangan hamjamiyatini yaratish;
- \*elektron o'quv materiallarini o'z vaqtida kecha-yu kunduz yetkazib berish;
- \*mamlakat doirasidagi barcha o'quv dargohlari rahbarlari o'rtasida axborot madaniyatini shakllantirish va takomillashtirish hamda ularning zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashi, ularning oddiy faoliyati samaradorligini oshirish;
- \*innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ommalashtirish, ularni o'qituvchilarga yetkazish;
- \*ta'lim veb-resurslarini ishlab chiqish qobiliyati;
- \*istalgan vaqtda va istalgan joyda dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan zamonaviy bilimlarni olish imkoniyati;
- \*psixofizik rivojlanishga alohida ehtiyojlari bo'lgan shaxslar uchun oliy ma'lumot olish imkoniyati;

Hozirgi kunda elektron pedagogikani yo'lga qo'yish maqsadida ta'lim tizimida asosan kompyuterlar qo'llanilmoqda. Asosan, bu jarayon 4 yo'nalishda kechmoqda. Bular: o'rganish obyekti sifatida, o'qitishning texnik vositasi sifatida, ta'limni boshqarishda, ilmiy-pedagogik izlanishlarda. Kompyuter o'quv-tarbiya jarayonida asosan quyidagi 4 tartibda foydalaniladi:

1. Passiv qo'llash-kompyuter oddiy hisoblagich sifatida.
2. Reaktiv muloqot-kompyuter imtihon oluvchi sifatida.
3. Faol muloqot-kompyuter talabaga yo'l-yo'riq berish va imtihon olishda.

4. Interfaol muloqot-kompyuter sun'iy intellekt sifatida, ya'ni talaba bilan muloqot qilishda foydalaniladi.

Albatta, har bir narsaning, har bir davrning umuman olganda yashayotgan hayotimizning ham yaxshi va yomon, qulay va noqulay tomonlari mavjud. Shu boisdan, elektron pedagogikaning ham o'ziga yarasha afzalliklari hamda kamchiliklari mavjud. Birinchi navbatda biz elektron ta'limning (pedagogikaning) o'ziga xos xususiyatlari ya'ni afzalliklarini aytib o'tsak.

1. Faqatgina AKT ga asoslangan bo'lishi: Bu ta'lim shakli o'quvchilar va o'qituvchilarni bir xil joyda to'plashni talab qilmaydi. Ta'lim jarayoni onlayn platforma, dasturlar va vositalar orqali amalga oshiriladi.

2. Moslashuvchanlik va erkinlik: Elektron pedagogika ta'lim jarayonida vaqt va joy jihatidan moslashuvchanlikni ta'minlaydi. O'quvchilar o'zlariga qulay vaqtda o'zlariga qulay joyda o'qishlari mumkin.

3. Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Elektron o'quv resurslari va dasturlari har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limni ta'minlashga imkon beradi.

4. Interaktivlik: Elektron pedagogika o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladigan interaktiv vositalarni qo'llaydi. O'quvchilar o'qituvchilar bilan onlayn muloqot qilishlari, forumlarda ishtirok etishlari, o'yinlar o'ynashlari va shu kabi ishlarni qilishlari mumkin.

5. Global aloqa: Elektron pedagogika dunyoning turli burchaklaridan o'quvchilar va o'qituvchilarni o'zaro bog'laydi, bu es xalqaro hamkorlik va madaniyatlararo almashinuvni rivojlantirishga yordam beradi.

6. Xarajatlarni tejash: Elektron pedagogika an'anaviy ta'limga nisbatan arzonroq bo'lishi mumkin, chunki u o'quv materiallari va transport xarajatlarini kamaytiradi.

7. Keng imkoniyatlar: Elektron pedagogika o'quv jarayonida turli xil vositalarni qo'llashga imkon beradi. Bu vositalar qatoriga videokonferensiya, virtual laboratoriyalar, o'quv o'yinlari, simulyatsiyalar, elektron kutubxonalar va boshqalar kiradi.

8. Doimiy ta'lim: Elektron pedagogika haftaning istalgan kunida istalgan soatida ta'lim olishni nazarda tutadi. Bundan tashqari har qanday yoshdagi va darajadagi odamlarga ta'lim olish imkoniyatini beradi, bu esa hayot bo'yi o'rganish g'oyasini rivojlantirishga yordam beradi.

9. Potensial teng ta'lim imkoniyatlari: Bunda ta'lim ma'lum bir ta'lim muassasasida o'qitish sifatiga bog'liq emas.

10. Bilimni baholash mezonlarini belgilash qobiliyati: Elektron ta'limda o'quvchining o'quv jarayonida olgan bilimi baholanadigan aniq mezonlarni belgilash mumkin.

Xalqimiz aytganidek tanganing ikki tomoni bo'ladi. Shunday ekan endi elektron pedagogikaning kamchiliklari haqida tahlil qilish navbati keldi, ya'ni tanganing ikkinchi tomonini ko'rib chiqamiz.

Elektron pedagogika zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylandi va uning qo'llanilishi kundan-kunga kengayib bormoqda. Biroq, bu ta'lim shaklining ba'zi kamchiliklari ham mavjud, jumladan:

\*Texnik imkoniyatlarning cheklanganligi: Ba'zi o'quvchilar va o'quvchilar internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lmasligi yoki texnik bilimlarga ega bo'lmasligi mumkin.

\*Ijtimoiy ta'sirlar: Elektron pedagogika ijtimoiy aloqalarni cheklab qo'yishi va o'quvchilarga psixologik salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada, ularda yolg'izlik hissi paydo bo'lishi yoki sog'liqlarida ko'plab muammolar paydo bo'lishi mumkin. Qon-tomir kasalliklari, ko'z kasalliklari, vazn ortishi shular jumlasidandir.

\*Motivatsiyani saqlash: O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi pasayishi mumkin.

\*Moliyaviy masalalar: Davlatlarda ba'zibir pul bilan bog'liq muammolar ham kuzatilishi mumkin. Kerakli resurslarni ishlab chiqish, ma'lumotlarni saqlash, veb-resurslarni yaratish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yangilash xarajatlari.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, elektron pedagogika zamonamiz talab qilayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun biz bu sohadan voz kecha olmaymiz. Ammo, uning afzalliklarini ham rad eta olmaymiz, asosan biz uning kamchiliklariga qaramasdan qabul qilishga harakat qilishimiz lozim. Shuni ham aytib o'tish kerakki, uning salbiy tomonlariga olimlar tomonidan yechimlar ishlab chiqilmoqda. Elektron pedagogikaning rivojlanishi va keng tarqalishini hisobga olgan holda, uning kuchli va zaif tomonlarini tushunish va uni samarali qo'llash uchun chuqurroq tadqiqotlar va ishlanmalar qilish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

[1] [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Elektron\\_ta%27lim](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Elektron_ta%27lim)

[2] Satunina A.E. Elektron ta'lim: ijoniy va salbiy tomonlari // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari: jurnal. - 2006. - 1-son. - S. 89-90

[3] Bolkunov I.A. Elektron ta'lim: muammolar, istiqbollar, vazifalar // Tachriveskiy ilmiy kuzatuvchi. - 2016. - Nashr. 11-1(16)

[4] Satunina A.E. Elektron ta'lim: ortiqcha va kamchiliklari // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. - 2006. - 1-son.